

Uzbekistan Airways: Mustaqil O'zbekiston bilan birga 35-yil

2026 28 Avgust

Uzbekistan Airways'da O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35-yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Uzbekistan Airways Boshqaruvi raisi jamoaga murojaat qilar ekan, 35-yil ichida mamlakatimiz ulkan bunyodkorlik va o'zgarishlar yo'lini bosib o'tganini ta'kidladi. O'zbekiston bilan birga milliy fuqaro aviatsiyasi ham o'sib, o'zgarib, rivojlanib bordi.



Shu yillar davomida yangi yoʻnalishlar ochildi, havo floti yangilandi, zamonaviy aviatsiya texnologiyalari oʻzlashtirildi, texnik va oʻquv bazasi mustahkamlandi. Ammo aviakompaniyaning har bir yutugʻi, amalga oshirilgan har bir aviaqatnov, uning rivojlanishining har bir yangi bosqichi ortida doimo insonlar turgan va turibdi.

Bular uchuvchilar va bortkuzatuvchilar, muhandislar va texniklar, yer usti xizmatlari mutaxassislari va boshqa koʻplab xodimlardir. Ularning baʼzilari bugungi kunda aviakompaniyada ishlashda davom etmoqda, baʼzilari esa oʻz bilim va tajribasini aviatorlarning keyingi avlodiga oʻtkazib, allaqachon soha faxriysiga aylangan. Aynan ularning kasbiy mahorati, masʼuliyati va oʻz ishiga sadoqati oʻnlab yillar davomida

Uzbekistan Airways tarixini yaratib kelgan.



Aviatorlar mehnati mamlakat rahbariyati tomonidan yuqori baholandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, Mustaqilligimizning 35-yilligi munosabati bilan Uzbekistan Airways va uning tarkibiy tuzilmalarining besh nafar vakili yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi" faxriy unvoniga Boeing 787 uchuvchi-yo'riqchisi Ulug'bek Ishmahamedov va A321 havo kemasi komandiri Tohir Baybulatov sazovor bo'ldi.

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan Boeing 787 havo kemasi komandirining o'rinbosari Zoid Kurganov, "Do'stlik" ordeni bilan uchuvchilar otryadi komandirining o'rinbosari Yevgeniy Nagay, "Shuhrat" medali bilan Uzbekistan Airways Technics yetakchi muhandisi Aybek Jumadillayev taqdirlandi.



"Uzbekistan Airways" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarining yana 164 nafar xodimi "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35-yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

Bu mukofotlar nafaqat hamkasblarimizning shaxsiy xizmatlarini, balki har kuni parvozlar xavfsizligini ta'minlaydigan, shaharlar va mamlakatlarni bog'laydigan hamda O'zbekiston rivojiga hissa qo'shadigan fuqaro aviatsiyasining katta jamoasi

mehnatining e'tirofidir.



Mustaqillikning 35-yilligi – bosib o'tilgan yo'lga g'urur bilan boqish va kelajakka ishonch bilan nazar tashlash uchun ajoyib imkoniyatdir.

Uzbekistan Airways mamlakat bilan birgalikda rivojlanishda, yangi yo'nalishlar ochishda, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishda, o'z kasbiy salohiyatini mustahkamlashda va Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda davom etadi.

Uzbekistan Airways havo kemalari mamlakatimiz bayrog'i ostida butun dunyo bo'ylab faxr bilan parvoz qilishda davom etsin, oldinda esa bizni yangi marralar,

yangi yutuqlar, doimo musaffo va tinch osmon kutib olsin!